



# Vaziyat

O'z vaqtida ogohlantirish, qutqarish va yordam berish asosiy vazifamizdir!

2024-yil  
17-oktyabr  
№ 42 (983)



O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi nashri

Gazeta 2004-yil 7-maydan chiqa boshlagan

## XALQARO HAMKORLIK



FVV Markaziy apparati binosida Favqulodda vaziyatlar vazirining birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i polkovnik S.Zuparov hamda vazirlik mutaxassislari bilan Germaniya Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi va tartibni saqlash boshqarmasi boshlig'i Shteffen Anton Xaag boshchiligidagi delegatsiya o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Mehmonlarning tashrifidan maqsad, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyati bilan yaqindan tanishish, yong'in va boshqa turdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish, shuningdek, oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha tajriba almashishdan iborat.

Muloqot davomida S.Zuparov O'zbekistonda aholi hamda hududlarni turli tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlardan samarali muhofaza qilish, insonlarning tinch hamda osoyishta hayot kechirishini ta'minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanishini ta'kidladi. Shu maqsadda mustahkam qonunchilik bazasi yaratilib, fuqaro muhofazasini davr talablariga mos ravishda takomillashtirib borilayotgani, favqulodda vaziyatlar monitoringini yuritish, bashoratlash va zarur profilaktika ishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari izchillik bilan amalga oshirilayotgani, xavfli kimyoviy moddalarni aniqlash, ular bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda zararsizlantirish hamda kimyoviy xavfsizlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida to'xtaldi.

O'z navbatida, Shteffen Anton Xaag bu boradagi Germaniya tajribasi bilan o'rtoqlashdi. Muloqotda tezkor axborot almashishni yo'lga qo'yish, favqulodda vaziyatlarning oldini olishda mintaqaning barcha mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash borasida ham muhim fikrlar bayon etildi. O'zbekistonda keyingi yillarda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhda tashqi siyosat yuritish, xorijiy davlatlar bilan do'stona hamda o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish borasida muhim natijalarga erishilayotgani xususida so'z yuritildi. Tomonlarning tabiiy ofatlarning oldini olish, zarami kamaytirish, oqibatlarini bartaraf etish, sanoat xavfsizligini nazorat qilish va keng qamrovli avariya-qutqaruv operatsiyalari kabi sohalaridagi hamkorligi ko'rib chiqildi. Amaliy hamkorlikni chuqurlashtirish bo'yicha yangi takliflar ham ilgari surildi.



FVV Fuqaro muhofazasi institutida "Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish, bolalar va ayollarni ularga bardoshlilikini oshirish" mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

## ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

Konferensiyada Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish Davlat tizimi (FVDT) tarkibiga kiruvchi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar Akademiyasi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Milliy gvardiya, Mudofaa, Ichki ishlar, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Bojxona qo'mitasi, O'zbekiston Qizil yarim oy jamiyati hamda Toshkent shahridagi umumta'lim maktablarining mas'ul xodimlari qatnashdilar.



Tadbir davomida BMTning UNICEF bolalar xayriya fondining O'zbekistondagi vakolatxonasi, Qirg'iziston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirliklari Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti, Gidrometeorologiya xizmati agentligi hamda O'zbekiston Milliy universitetining yetakchi olimlarining ma'ruzalari tinglandi. Ushbu ma'ruzalarda iqlim o'zgarishi, issiqxona gazlarining iqlim o'zgarishiga ta'siri va ularning oqibatini yumshatish, shahar hududlarida favqulodda vaziyatlar haqida ogohlantirish, yer shari iqlimi, uning o'zgarishi va prognozi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, sohadagi yangiliklar, dolzarb muammolar va ularning yechimlari xususida so'z yuritildi.



Ta'kidlanganidek, Yer sayyorasida umumiy haroratning ko'tarilishi atrof muhitning, ayniqsa atmosfera havosining zararlanganligini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Atmosfera havosi tarkibida qator zararli moddalar miqdorining ko'payishi nafaqat haroratning, balki sayyoramizning barcha mintaqalarining iqlimi o'zgarishiga olib kelmoqda. Iqlim o'zgarishi inson hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda va iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini oldini olish hamda yangi hayot sharoitlariga moslashish bo'yicha kechiktirilmaydigan choralar ko'rishni talab etmoqda.

Savol-javoblar bahs-munozaralarga boy bo'ldi.

Anvar QOBILOV tayyorladi.

21-oktabr – O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun!



## ONA TILIM

Sen meningsan tanu jon tilim,  
Dil ko'zgusi – jonajon tilim.  
Sajdagohim, Ka'bamsan o'zing,  
Ona tilim – onajon tilim.

Sen-la uyg'oq shuurim mening,  
Iftixorim, g'ururim mening.  
Zavqim-shavqim, sururim mening,  
Ona tilim – onajon tilim.

Zabonim – ko'kdagi oy tilim,  
Go'zal shevalarga boy tilim.  
Tomirimda oqqan soy tilim,  
Ona tilim – onajon tilim.

Sen tufayli o'zbek xalqi bor,  
Ellik million qalbga g'urur, or,  
Tilini yo'qotgan bo'lur xor,  
Ona tilim – onajon tilim.

Shavkatimsan, shonimsan o'zing,  
Nufuzimsan, sha'nimsan o'zing,  
Haq qadarlik ma'nimsan o'zing,  
Ona tilim – onajon tilim.

Sensan qora ko'zlar gavhari,  
Dunyo tillarining sarvari,  
Turkiy tillar – hukming navkari,  
Ona tilim – onajon tilim.

O'zingsan-yey, borlig'im-borim,  
Bor vujudim, nomusim-orim,  
Tillar ichra chaman gulzorim  
Ona tilim – onajon tilim.

Benazirsan, bebaho tilim,  
Sen koinotda tanho tilim,  
Kuyday mayin, xushnavo tilim,  
Ona tilim – onajon tilim.

Bosh minbarni zabt etib sasing,  
Olam aro kezar nafasing,  
Dunyolarni chulg'ar havasing,  
Ona tilim – onajon tilim.

Sen borsanki, go'zal bu hayot,  
Qayg'u-alam menga azal yot.  
Sen bor – qalbga quyilar ijod,  
Ona tilim – onajon tilim!

Cho'ng qadring ulug' sabotimsan,  
Umrin bezagan bayotimsan,  
Jonu jahonim-hayotimsan,  
Ona tilim – onajon tilim.

Azamat SUYUN,  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi a'zosi.

## VATANPARVARLIK TADBIRI

**Surxondaryo viloyatidagi harbiy qismlarning birida yoshlar ishtirokida "Jasorat maktabi" harbiy-vatanparvarlik o'quv yig'inining navbatdagi mavsumi boshlandi.**

Tantanalil ochilish marosimida Termiz harbiy prokuraturasi, Janubiy operativ qo'mondonlik, Yoshlar ishlari agentligi va Yoshlar ittifoqi viloyat tuzilmalari vakillari hamda yoshlar, ota-onalar va faxriylar qatnashdi.

So'z olganlar ta'kidlab o'tganlaridek, o'n kunlik o'quv yig'ini davomida birlashtirilgan yoshlarni vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalash, huquqiy savodxonligini oshirish, kasbga yo'naltirish, jismonan chiniqtirish, shuningdek, muammolarini o'rganib, ijobiy hal etilishini ta'minlash maqsad qilingan.

**Farhod UBAYDULLAYEV,**  
*Termiz harbiy prokuratori yordamchisi, adliya leytenanti.*

**O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan kuch-tuzilmalari va mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda respublikamiz bo'ylab o'tkazib kelinayotgan "Men – vatanparvarman" loyihasi doirasidagi tadbirlar Jizzax viloyatida ham qizg'in o'tdi.**

## BILIMLAR NAMOYISHI

Sharof Rashidov tumanida harbiy prokuraturaga birlashtirilgan "Olmachi" mahallasidagi 20-sonli, shuningdek, olis hududlardagi, jumladan Baxmal tumanidagi 60-sonli va Zomin tumanidagi 65-umumta'lim maktablarida o'tgan ko'rik-tanlov ham o'quvchi qizlarning naqadar zukko, qolaversa, yigitlardek abjir, chinakam vatanparvar bo'lib kamolga yetayotganini ko'rsatdi.

Ishtirokchilarning bilimlari, vatanga muhabbat, sadoqat, buyuk ajdodlarimiz, jumladan, jadidlarimiz ezgu

maqsadlari aks etgan sahna ko'rinishlari, tezkor savol-javoblardagi bilimlari barchada katta taassurot qoldirdi.

G'olib jamoalar, faol o'quvchilar va loyiha doirasida jonbozlik ko'rsatgan Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari ayol-harbiy xizmatchilari faxriy yorliq, diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

**Sardor YORMATOV,**  
*O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi yordamchisi, adliya podpolkovnigi.*

## ALDOQCHI AYOL

Sudda o'zgalarni chuv tushirib, pul-larini aldab olgan ayolning ishi ko'rib chiqildi. N.T.ismli ayol ilgari firibgariligi uchun sudlangan bo'lishiga qaramay yana eski "hunarini" davom ettirgan. U ijtimoiy tarmoq orqali go'yoki Turkiya davlatida ishlab chiqarilgan ayollar kiyim-kechagini sotmoqchi ekanligi to'g'risida e'lon joylashtirgan. E'lon bo'yicha unga murojaat qilgan S.S.ni aldab, oldindan 300000 so'mni plastik kartochkasiga o'tkazib berishga erishgan. Biroq u va'dasini bajarmay pullarni o'zining ehtiyojiga sarflab yuborgan. Ijtimoiy tarmoqdagi ayollar kiyimi aks etgan fotosurat bo'yicha murojaat qilgan P.Ch.ni ham aldab, uning ham 1260000 so'm miqdordagi pulini aldov yo'li bilan olgan. Uning yolg'on va'dalariga uchgan yana 4 nafar fuqaro ham Turkiyada ishlab chiqarilgan kiyim-kechakdan umidvor bo'lib N.T.ning plastik kartasiga pul o'tkazishgan. Keyinchalik ular aldanganligini bilishgach, huquqni muhofaza qiluvchi organga murojaat qilishgan.

Sudda sudlanuvchi N.T. aybiga to'liq iqror bo'lib, hozirgi kunda qilmishidan pushaymonligini, jabrlanuvchilarga yet-



kazilgan moddiy zararlarni to'liq qoplab berganligini, oilaviy sharoitini, ayolning hisobga olib yengilroq jazo tayinlashini so'radi. Sud unga jazo tayinlashda barcha jihatlarni e'tiborga oldi. Unga Toshkent viloyat sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati kassatsiya instansiyasining 2024 yil 18 martdagi hukmi bilan tayinlangan jazoning o'talmay qolgan qismini to'liq qo'shishlik yo'li bilan uzil-kesil 3.300.000 so'm jarima jazosi hamda ish haqining 20 foizi miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda 2 yil 11 oy muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlandi.

**Alisher JALILOV,**  
*Jinoyat ishlari bo'yicha Yakkasaroy tuman sudining raisi.*

## SEMINAR

**Qarshi shahar FV bo'limida "Korrupsiya – rivojlanishimizga to'siq" mavzusida seminar tashkil etildi.**

Unda ma'ruzachilar tomonidan korrupsiya va poraxo'rlik harom luqma ekanligi, bunga qarshi barcha sohalarida yangicha tizim, jumladan, ichki nazoratni tashkil etish va uni amalga oshirish bo'yicha har bir tashkilotda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar alohida ta'kidlab o'tildi.

Shuningdek, mutaxassislar tomonidan "Axborot jamiyatining shakllanishi shar-

oitida siyosiy, madaniy, ijtimoiy hayotda dinning roli", "Diniy mazmundagi virtual tahdidlar" va "Kibermakondagi geografik bog'liqliklar" mavzularida ham batafsil tushunchalar berildi.

Bundan tashqari, yo'l-transport hodisasini sodir etmaslik, xizmat va xizmatdan tashqari vaqtda "Yo'l harakati qoidalariga" qat'iy amal qilish bo'yicha profilaktik suhbatlar olib borildi.

**T.TURAEV,**  
*Qashqadaryo viloyati FVB SHXB boshlig'i, podpolkovnik.*

**Urganch harbiy prokuraturasi tomonidan harbiy qismlarning birida o'rganishlar olib borildi.**

## FAOLIYAT

Jarayonda mavjud sharoitlar, hududda amalga oshirilayotgan qurilish-ta'mirlash ishlari va boshqa masalalarga e'tibor qaratildi.

Shuningdek, shaxsiy tarkib bilan mu-loqot olib borildi.

## ANJUMAN

**Namangan viloyati FVBda OAV vakillari, jurnalist va blogerlar ishtirokida matbuot anjumani, shuningdek, Namangan davlat universiteti va Namangan muhandislik-qurilish instituti talabalari uchun amaliy seminar tashkil etildi.**



13-oktyabr – Xalqaro tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish kuni doirasida tashkil etilgan ushbu tadbirni boshqarma Hayot

Bundan tashqari, Milliy gvardiya Xorazm viloyati bo'yicha boshqarmasida profilaktik tadbir o'tkazildi.

Unda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun mohiyati, bu boradagi jinoyatlar va ular uchun belgilangan javobgarlik masalalari haqida so'z yuritildi.

**Mirkamol QO'CHQOROV,**  
*Urganch harbiy prokuraturasi katta tergovchisi, adliya kapitani.*

faoliyati xavfsizligi o'quv markazi boshlig'i podpolkovnik G'ulomjon Ismailov kirish so'zi bilan ochdi. So'ng markaz o'qituvchilari BMT tomonidan ushbu kunning tashkil etilishi, bu to'g'risidagi hujjatlar hukumatimiz tomonidan ratifikatsiya qilinishi to'g'risida ma'ruza qildilar.

Shundan so'ng boshqarma boshlig'i o'rinbosari podpolkovnik Baxromjon Radjapov kuz-qish mavsumida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yong'in, chaqnash, is gazidan zaharlanish hamda tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish bo'yicha viloyatda amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot berib o'tdi.

Jurnalistlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan batafsil javob olishdi.

**Qahramon SATTAROV,**  
*Namangan viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.*

## VATANPARVARLIK XONASI

**Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi 18-umumta'lim maktabida tantanalil marosim bo'lib o'tdi.**

Unda qayta ta'mirlanib, yangi o'quv-moddiy baza bilan ta'minlangan va barcha zamonaviy sharoitlarga ega chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlov xonasi foydalanishga topshirildi.

Tadbirda viloyat hokimligi, Mudofaa vazirligi harbiy qismi qo'mondonligi, maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi, Navoiy harbiy prokuraturasi va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdilar.

So'z olganlar yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va imtiyozlar xususida batafsil ma'lumotlar berishdi.

Tadbir davomida qurol-aslaha ko'rgazmasi va Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar hamda faxriy qorovul chiqishlari hammaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

**Jo'rabek O'RINOV,**  
*Navoiy harbiy prokuratori, adliya polkovnigi.*

## FAXRIMIZ, G'URURIMIZ

Har bir millat, xalq o'z ona tilini sevishi, ardoqlashi, uning rivojlanishi, tarixda yashab qolishi uchun bor imkoniyatlarini ishga solishi kerak. Bugun ushbu masala yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Chunki dunyo davlatlari o'z rivojlanish bosqichlarida davlat tiliga e'tiborni birinchi o'ringa qo'yimoqda.

Xususan, bugungi Yangi O'zbekistonda ham davlat tiliga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibida Davlat tilini rivojlantirish departamentining tashkil qilinganligi, hozirda vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar, davlat va jamoat muassasalarida rahbarning davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchilari lavozimlarida mas'ul mutaxassislarning ish olib borayotganliklari fikrimizga yaqqol dalildir.

FVV Akademiyasida ham davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlashga birinchi galdagi vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Jumladan, Akademiyada ta'lim-tarbiya ishlarini davlat tilida olib borish, ish hujjatlarini davlat tilida yuritish, filolog olimlar,

shoir va yozuvchilar, san'at va madaniyat vakillari bilan davlat tili targ'ibotiga bag'ishlangan adabiy kechalar va uchrashuvlar o'tkazish asosiy kun tartibidan joy olgan.

Mazkur tadbirlarda nafaqat professor-o'qituvchilar, balki kursantlar ham qizg'in ishtirok etib, o'z iqtidor va imkoniyatlarini namoyon etmoqdalar. Akademiya o'qituvchilar va kursantlar jamoalari nafaqat ta'lim maskani, balki vazirlik, shuningdek, respublika doirasidagi tanlovlar va tadbirlarda ham faol ishtirok etib, qator samarali natijalarni qo'lga kiritmoqdalar. Darhaqiqat, ona tili hamisha e'tibor va e'zozga munosibdir.

So'z mulkning sultoni hazrat Alisher Navoiy bobomiz tilga e'tiborni elga e'tibor deb, bejiz aytmaganlar. Ona tilimizga e'tibor qaratar ekanmiz, elimizni, xalqimizni, millatimizni oilamiz, qo'rg'onimizni avaylagan bo'lamiz.

**Baxshullo JAHONQULOV,**  
*FVV Akademiyasi axborot xizmati boshlig'i.*

## XAVFNI KAMAYTIRAYLIK

Namangan shahar FV bo'limi 1-yong'in-qutqaruv qismida "13 oktyabr – Xalqaro tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish kuni"ga bag'ishlangan viloyat miqyosida amaliy seminar o'tkazildi.

Ushbu tadbir davomida qidiruv-qutqaruv, yong'in o'chirish vositalari va mahsus texnikalar ko'rgazmasi tashkil etildi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhi-

da tarbiyalash, ularda qutqaruvchi va o't o'chiruvchi kasbiga bo'lgan ishtiyoqni oshirish borasida muhim fikrlar bayon etildi. Viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining muzeyi bo'ylab sayohat uyushtirildi.

**A.XOLDAROV,  
D.ABDURAHMONOV,  
Namangan viloyati FVB  
HF XO'M o'qituvchilari.**

## MUHIM KUN DOIRASIDA

Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumanidagi maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida "13-oktabr – Xalqaro tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish kuni" munosabati bilan qator ishlar amalga oshirildi.

Ushbu tadbirlar mobaynida yoshlar bilan davra suhbat, seminar, o'quv mashg'ulotlari, "Quvnoq qutqaruvchi", "Qutqaruvchilik sharafli kasb", "Men

qutqaruvchi bo'laman" mavzularida musobaqa va o'quv mashg'ulotlari olib borildi.

Bundan tashqari, aholi ko'p to'planadigan, gavjum va jamoat joylarida elektron tablolar orqali xalqaro tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish kuni mavzusidagi roliklar namoyish etildi.

**S.QURBONBAYEV,  
To'rtko'l tumani FV bo'limi  
boshlig'i o'rinbosari, mayor.**

## AKADEMIYADAGI FORUM



FVV Akademiyasida "Yosh olimlar forumi" o'tkazildi.

Tadbirda FVV ta'lim jaronini tashkil etish va fan, innovatsiyani rivojlantirish boshqarmasi, hududiy boshqarmalar va tarkibiy tuzilmalarning ilmfan, madaniyat, sport va soha yo'nalishi bo'yicha muayyan yutuqqa erishgan yoshlari, harbiy oliy ta'lim muassasalarining vakillari, iqtidorli kursantlari, FVV Akademiyasi professor-o'qituvchilari, harbiy xizmatchilari, xizmatchilar va kursantlar ishtirok etdilar.

Forum davomida so'z olgan Akademiya boshlig'i general-mayor Ravshan Haydarov Yangi O'zbekistonda yoshlari zamonaviy texnologiyalarni mukammal o'zlashtirishi zarurligini, innovatsion ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish ishlarida faol bo'lishi kerakligini aytib o'tdi. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari sohasida hamkorlikni kengaytirish lozimligini ham alohida ta'kidladi.

Anjumanda so'z olganlar favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yong'in xavfsizligini ta'minlash sohasida bir qator ixtirolar va ilmiy ishlanmalar, yutuqlarni samarali tatbiq etish

masalalariga alohida e'tibor qaratish hamda ilmiy-texnik salohiyat va imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish joizligi qayd etildi. Yosh olimlarning kasbiy va ilmiy-ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Yosh olimlar kengashi" tashkil etilganligi xususidagi keng fikr-mulohazalar bildirishdi.

Tadbirda Akademiya, Favqulodda vaziyatlar muammolari va yong'in xavfsizligi ilmiy tadqiqot instituti, Fuqaro muhofazasi institutida ishlab chiqilgan ilmiy-innovatsion ishlanmalar, shuningdek, Toshkent shahar FVB, Respublika qutqaruv markazi faoliyatida foydalanib kelinayotgan zamonaviy texnika va asbob-uskunalar namoyish etildi. FVV tizimida duch kelayotgan muammolarni ilmiy jihatdan bartaraf etish masalalari muhokama qilindi. Tabiiy va texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etishda innovatsion texnik qurilmalar va usullardan foydalanish bo'yicha ko'rgazmalar namoyish etildi.

Yakunda tashkilotchilar tomonidan eng yaxshi g'oya va ixtirolar bo'yicha faol ishtirokchilarga tashakkurnoma va esdalik sovg'alari tantanali topshirildi.

**Farhodjon XOJAYEV,  
FVV Akademiyasi  
katta o'qituvchisi, mayor.**

## "OCHIQ ESHIKLAR" KUNI

Namangan viloyati FVB-da Namangan davlat universiteti va Namangan muhandislik-qurilish instituti talabalari uchun "Ochiq eshiklar" kuni tashkil etildi.



Dastlab, boshqarma Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchilari tomonidan tadbirning mazmun mohiyati to'g'risida atroflicha tushuntirildi.

Shundan so'ng o'qituvchi va talabalar boshqarmada tashkil etilgan muzeyga sayohat qilib, eksponatlar bilan yaqindan tanishdilar.

Shuningdek, yong'in qutqaruv avtomashinalari va undagi qutqaruv asbob-anjomlari bilan

yaqindan tanishtirilib, hamkorlikdagi tadbirlarda faol ishtirok etganliklari uchun institut o'qituvchilariga boshqarma boshlig'ining tashakkurnomalari topshirildi.

**Islomjon MELIBOYEV,  
Namangan viloyati FVB  
axborot xizmati yetakchi  
mutaxassisi.**

**Abdug'ani XADJAYEV,  
boshqarma HF XO'M katta  
o'qituvchisi.**

## BELLASHUV

Jizzax viloyati FVB, O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi, Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi hamkorligida FVV tomonidan otaliqqa olingan yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, ularning qobiliyati va mahoratini namoyon etishlari uchun sharoit yaratish, "Qutqaruvchilik" kasbiga qiziqirish va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlarini ta'minlash maqsadida "Yurtning kuchi - birlikda, qadri esa tinchlikdadir" shiori ostida

Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi uchun otaliqqa olingan yoshlar o'rtasida sport musobaqalari va ko'rik-tanlovlarning viloyat bosqichi o'tkazildi.

Musobaqa shartlariga ko'ra, jamoalar "Men – qutqaruvchiman" estafetasi, "Voleybol", "Shaxmat", "Arqon tortish", "Ijodiy taqdimot", "Birinchi yordam ko'rsatish" va "Dala chodirini tiklash" kabi shartlar bo'yicha o'zaro bellashishdi.

Qizg'in va murosasiz kechgan bahslarda yoshlar o'zlarining har tomonlama tezkor va

kuchli ekanligini namoyon qilib, nafaqat jamoaviy yutuq uchun, balki turli nominatsiyalar uchun kurash olib borishdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, 1-o'rin Jizzax shahar "Sayhon" MFYning "Sayhon burgutlari" jamoasiga, 2-o'rin Sharof Rashidov tumani "Uchtepa" MFYning "Uchtepa yoshlari" jamoasiga va 3-o'rin Forish tumani "Musuqul Orolov" MFYning "Turon" jamoasiga nasib etdi.

**Akmal URAZMUHAMEDOV,  
Jizzax viloyati FVB boshlig'i  
o'rinbosari, kapitan.**

## O'ZBEKISTON — YOSHLAR MAMLAKATI

"Yurtning kuchi – birlikda, qadri esa tinchlikdadir!" shiori ostida "Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi" musobaqalarining Qarshi tumani bosqichida tumandagi mahalla yoshlaridan iborat jami 7 ta jamoalar g'oliblik uchun ishtirok etishdi.

Jamoalar uchta shart asosida bellashishdilar. Dastlab, ishtirokchilar "Men – qutqaruv-

chiman" estafetasida kuch sinashgan bo'lsa, yoshlar sportning "Voleybol" va "Shaxmat" turi bo'yicha bellashdilar.

So'nggi shartda ishtirok etgan yoshlar esa "Arqon tortish" bo'yicha yana bir bor tezkorligi va kuchlarini sinovdan o'tkazishdi.

Musobaqada umumjamoa hisobida 3-o'rin "Bodomzor" mahalla yoshlariga, 2-o'rin Ko-

jar mahalla yoshlariga nasib etgan bo'lsa, 1-o'rinni tumaning "Lagandi" mahalla yoshlari qo'lga kiritdi.

G'oliblar mas'ullar tomonidan diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

**Shahboz BOBOMURODOV,  
Qashqadaryo viloyati FVB  
xodimi.**

## RESPUBLIKA BOSQOCHIGA YO'L



Buxoro viloyatida "Yurtning kuchi – birlikda, qadri esa tinchlikdadir!" shiori ostida Favqulodda vaziyatlar vazirining kubogi sport musobaqalarining viloyat bosqichi o'tkazildi. Musobaqa yakunlariga ko'ra, 3-o'rin Buxoro tumani jamoasiga, 2-o'rin Buxoro shahri jamoasiga hamda 1-o'rin Jondor tumani jamoasiga nasib etdi. Ularga viloyat FVB, viloyat Harbiy prokuraturasi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi viloyat Kengashining esdalik sovg'alari va diplomlari topshirildi. Umumjamoa hisobida g'alaba qozongan Jondor tumani jamoasi ushbu sport musobaqalarining respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

**Nargiza NURULLAYEVA,  
Buxoro viloyati FVB  
axborot xizmati xodimi.**



## DAVRA SUHBATI

FVV Akademiyasi harbiy xizmatchi va kursantlar ishtirokida "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar tushunchasi, uning oqibatlari, kelib chiqish sabablari hamda oldini olish" mavzusida davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Tadbirda akademiya rahbariyati, Toshkent Harbiy sudining raisi Jamshid Rahmonov va Toshkent Harbiy prokurorining katta yordamchisi adliya polkovnigi Kamoliddin Ro'zmetov va akademiya kursantlari ishtirok etdilar.

Ma'ruzachilar tomonidan harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarni bugungi kunda aynan kimlar tomonidan sodir etilayotganligi, qanday turdagi jinoyatlarni sodir etayotganligi va sodir etilgan jinoyatlarning oqibatlari, shuningdek, qilgan qilmishi uchun jazo muqarrar ekanligi misollar orqali tushuntirib o'tildi.

Suhbat yakunida kursantlar o'zlarining qiziqirgan savollariga ma'ruzachilar tomonidan atroflicha javob oldilar.

**Firdavs KARIMOV,  
FVV Akademiyasi bo'lim boshlig'i kapitan.**

“13-oktabr – Xalqaro tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish kuni” munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya instituti shaxsiy tarkibi bilan “Tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda yoki sodir bo‘lish xavfi tug‘ilganda aholining harakatlari” mavzusida o‘quv-amaliy seminar o‘tkazildi.

## YONG‘INGA QARSHI



Tadbir davomida Qashqadaryo viloyati Hayot faoliyati xavfsizligi o‘quv markazi o‘qituvchilari tomonidan “Zilziladan oldin, zilzila vaqtida,

zilziladan so‘ng aholining harakati” mavzusida ma‘ruzalar qilindi. Shuningdek, yong‘in-qutqaruv guruhi asbob-anjomlari ishtirokchilarga tanishtirildi. Kursantlar birlamchi o‘t o‘chirish vositalaridan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha o‘zlarining bilim ko‘nikmalarini mutaxassislar ko‘magida sinovdan o‘tkazishdi.

Seminar yakunida ishtirokchilar o‘z savollariga mutaxassislar tomonidan atroflicha javob oldilar.

**Ilhom MUQIMOV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB HFXO‘M  
o‘qituvchisi.

## AJDODLARIGA MUNOSIBLAR

Sirdaryo viloyati FVBga tizimda uzoq yillar samarali mehnat qilgan va hozirda nafaqada bo‘lgan keksa avlod vakillari taklif etilib, “Faxriylar va yoshlar uchrashuvi” o‘tkazildi.

Uchrashuv davomida ibrat maktabini yaratgan faxriylar tomonidan boshqarmada faoliyat olib boruvchi yosh harbiy xizmatchilarga o‘zlarining mehnat faoliyati davomida orttirgan oltinga teng hayotiy tajribalari hamda bugungi kunda yaratilgan sharoitlarning qadriga yetish va sohani rivojlantirishga yanada harakat qilish kerakligi aytib o‘tildi.

Keksalar boshqarmada yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishtirildi, sportning stol tennisi, shaxmat turi bo‘yicha musobaqalar o‘tkazildi. G‘olib bo‘lgan faxriylar esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandilar.

Shuningdek, FVB va hududiy bo‘limlarda uzoq yillar mehnat faoliyatini olib borgan va



hozirda nafaqada bo‘lgan keksalarning holidan xabar olindi. Sog‘ligi tufayli imkoniyati cheklangan faxriylarning xonadonlarida hashar ishlari o‘tkazildi.

**Davronbek SULAYMONOV,**  
Sirdaryo viloyati FVB axborot xizmati boshlig‘i,  
kapitan.  
**Shaxzod NOSIROV,**  
boshqarma bo‘lim bosh inspektori, katta  
leytenant.

## O‘QUV MASHQI

Namangan viloyati Uychi tumani “Shifokor” mahallasidagi Tibbiyot birlashmasiga qarashli bolalar bo‘limida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish maqsadida hamkorlikdagi xizmatlar bilan yong‘in o‘chirish taktik-o‘quv mashqi o‘tkazildi.



Rejaga ko‘ra, bolalar bo‘limida shartli ravishda yong‘in sodir bo‘lgan, unda tibbiyot birlash-

masi xodimlarining to‘g‘ri harakatlanishi, xabar berish va birlamchi yong‘in o‘chirish vositalaridan foydalanishni o‘rgatish, evakuatsiya ishlarini amalga oshirish hamda yuqori chaqiriq bo‘yicha jangovar harakatlar amalda sinab ko‘rildi.

Shuningdek, kuz-qish mavsumida tibbiyot birlashmasida yong‘in xavfsizlik qoidalariga amal qilish bo‘yicha qo‘shimcha yo‘riqnomalar o‘tkazildi.

**Xayrullo MAVLANOV,**  
Uychi tumani FV bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari,  
mayor.

## TARG‘IBOT

Uchquduq tumani Milliy gvardiya bo‘limi bilan hamkorlikda tumandagi 4-umumtalim maktabida o‘qituvchi-murabbiylar va maktab o‘quvchilari bilan yong‘in xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan profilaktik tadbir, yong‘in-qutqaruv texnikalari namoyishi va targ‘ibot-tashviqot ishlari amalga oshirildi.

Shuningdek, kuz-qish mavsumida ob-havoning keskin sovib ketishi oqibatida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan yong‘inlar va boshqa favqulodda vaziyatlar haqida maktab o‘qituvchi va o‘quvchilari bilan profilaktik suhbat, tashviqot va ko‘rgazmali uchrashuv o‘tkazildi.



**O.HIKMATOV,**  
6-YQQ boshlig‘i o‘rinbosari  
katta leytenant.  
**D.ASADOV,**  
ShKB OYXTTEB P va NB  
inspektori, serjant.

## JARAYON

Qoraqalpog‘iston Respublikasi FVB tomonidan “13-oktabr – Xalqaro tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish kuni” munosabati bilan Nukus shahridagi Ibroyim Yusupov nomli ijod maktabida favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda to‘g‘ri harakatlanish bo‘yicha ko‘rgazmali o‘quv mashqi bo‘lib o‘tdi.

Mashq davomida o‘quvchilarning mavzu yuzasidan nazariy bilimlarini yanada oshirish maqsadida seminar ham tashkil etildi. Tadbir

so‘ngida ishtirokchilar o‘zlarini qiziqtirgan barcha savollariga javob oldilar.



**Aybek ABDIRAXMANOV,**  
Qoraqalpog‘iston  
Respublikasi FVB matbuot  
xizmati boshlig‘i, mayor.

## EPCHILLIK ZARUR

Pop tumanidagi 2-sport maktabida “Yurtning kuchi – birlikda, qadri esa tinchlikdadir!” shiori ostida Favqulodda vaziyatlar vazirining kubogi uchun otaliqqa olingan yoshlar o‘rtasida sport musobaqalariga start berildi. Unda tumanning barcha hududlaridan kelgan mahallaga birlashtirilgan harbiy xizmatchi va yoshlar yetakchisi tomonidan 18 dan 25 yoshgacha bo‘lgan otaliqqa olingan yoshlar 3 ta shart bo‘yicha g‘oliblik uchun kurash olib bordilar.

Musobaqaning taqdirlash marosimida tuman FV bo‘limi boshlig‘i, tuman prokurori o‘rin-

bosari, yoshlar ishlari agentligi hamda sport maktablari vakillari ishtirok etdilar.

Bahslarning yakuniy natijalariga ko‘ra, 3-o‘rin “Tuman” mahallasi vakillariga nasib etgan bo‘lsa, 2-o‘ringa “Birlashgan” mahallasi munosib ko‘rildi. 1-o‘rinni qo‘lga kiritgan “Uyg‘ur” mahallasi yoshlari esa musobaqaning viloyat bosqichida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

**O‘tkirjon MAMASODIQOV,**  
Pop tumani FV bo‘limi TB  
boshlig‘i, leytenant

## EHTIROM

Quvasoy shahar FV bo‘limi hamda “Farg‘onaazot” AJ OYXTTEB xodimlari viloyatning Bog‘dod, Oltiariq, Beshariq, Qo‘sh tepa, Uchko‘prik tumanlarida istiqomat qilib kelayotgan keksa avlod vakillarining holidan xabar ol-

dilar. Nuroniyalar mamlakatimizda keksalarga berilayotgan etibor

va e‘tiroflarni to‘lqinlanib gapirishdi.

Albatta, bu kabi tadbirlarni tashkil etishdan maqsad, keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirishdan iboratdir.

**Aholidin ALIJONOV,**  
Farg‘ona viloyati FVB axborot  
xizmati rahbari, kapitan.

FVV Boshlang‘ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida vazirlik tizimida uzoq yillar xizmat qilib nafaqaga chiqqan faxriylar bilan uchrashuv tashkil qilindi.

## FAHRIYLAR E‘ZOZDA

“Keksalarni e‘zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko‘rsatish xalqimizga xos ezgu fazilat” shiori ostida o‘tkazilgan tadbir davomida faxriylar markazning faoliyati va u yerda tahsil olayotgan tinglovchilarga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar hamda o‘tkazilayotgan amaliy mashg‘ulotlar bilan yaqindan tanishdilar.

Markazning malakali mutaxassislari tomonidan faxriylarga vazirlikning hozirgi kunda tizimda foydalanilayotgan zamonaviy qutqaruv, tog‘ va aviariya-qutqaruv asbob-anjomlari, radiatsion, kimyoviy, biologik zararlangan obektlarda yong‘in o‘chirishda qo‘llaniladigan asboblari va himoya vositalari



hamda yong‘in o‘chirish avtomobili, uning tarkibiy qismlari, tuzilishi va qo‘shimcha asbob-anjomlari bilan to‘liq tanishtirildi.

**Furqat MAVLONOV,**  
FVV Boshlang‘ich tayyorgarlik  
va malaka oshirish markazi  
bo‘lim boshlig‘i, podpolkovnik.  
**Asadbek TURDIYEV,**  
markaz katta ofitseri, katta  
leytenant.

## SODIQ O'G'LO'N!



Har bir inson o'z kasbining chinakam egasiga aylanishi yo'lida turli mashaqqatlarni, qiyinchiliklarni bosib o'tadi. Sarhadlarimiz daxlsizligini hamda, insonlarning xavfsizligini ta'minlash yo'lida o'z burchini sadoqat bilan ado etayotgan irodali, baquvvat, matonatli o'g'lonlarimiz safi ortib borayotganligi barchamizni birdek quvontiradi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi maxsus vazifalar bo'yicha respublika qutqaruv markazi yong'in qidiruv-qutqaruv otryadi katta usta qutqaruvchisi Timurbek Uskenbayev ham ana shunday o'g'lonlardan.

U dastlab, 2014-yil xizmatni yakunlab, oktabr oyida FVV Fuqaro muhofazasi insitutiga qorovul, 2017-yilda hozirgi FVV "Qamchiq" maxsus qidiruv, yong'in-qutqaruv boshqarmasiga qutqaruvchi ya'ni harbiy bo'lib o'z faoliyatini davom ettirgan.

– Bolaligimdan qutqaruvchi bo'lishni orzu qilganman, – deydi qahramonimiz. – Bu sohaga kirib kelishimga ota-onam hamda buvijonimning yordamlari katta bo'lgan. Eng katta motivatsiyani otamdan olganman. Astoydil mehnat qilib, o'qib izlandim. Bugun men maqsadimga erishdim. Xizmat davrimda insonlarni, yurtdoshlarimni ko'zida quvonchni ko'rdim. Xavfdan xoli bo'lgan insonlar duoga qo'llarini ochib barakalla, har ishingda fayzu-barokat bo'lsin, ajdodlarimizga munosib avlod bo'ling deya meni ruhlantirar edi.

**Rushana ROZABOYEVA,**  
UZJOKU harbiy jurnalistika yo'nalishi talabasi.

## MUSOBAQALARGA START BERILDI



Jizzax viloyatining shahar va tumanlarida "Yurtning kuchi – birlikda, qadri esa tinchlikdadir!" shiori ostida "Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi" musobaqalari o'tkazilmoqda.

Bahslarning birinchi kunida Zarbdor tumani 2-sektoridagi 3 ta "Lalmikor", "Yangihayot", "Yangiobod" mahallalaridan otaliqqa olingan yoshlardan iborat jamoalari hamda musobaqaning ikkinchi kunida G'allaorol tumanidagi 2-sektor hududidagi 4 ta "G'afur G'ulom", "Sarbozor", "Oqtom", "Tozaurug" mahallalaridan otaliqqa olingan yoshlaridan iborat jamoalar musobaqaning tuman bosqichida ishtirok etdilar.

Bellashuv nizomiga ko'ra, har bir jamoa 8 nafar ishtirokchilardan iborat bo'lib, estafeta, voleybol, shaxmat hamda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish shartlari bo'yicha kuch sinashdi.

Musobaqa yakuniy natijalariga ko'ra, Zarbdor tumanining "Lalmikor" va G'allaorol tumanining "Sarbozor" mahallalari yoshlari viloyat bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdilar.

G'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan medal, diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

**Akbar SHAVQIYEV,**  
Jizzax viloyati FVB bo'lim boshlig'i, kapitan.



## SINOV

Namangan viloyati FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazida viloyat hududidagi FVDT tarkibiga kiruvchi tashkilot va idoralar navbatchi- dispetcherlari bilan o'quv seminar o'tkazildi.

Mazkur tadbirda favqulodda vaziyatlar ro'y berish xavfi yuzaga kelganida yoki favqulodda vaziyat ro'y berganda xabar berish tartibi, tegishli idora va tashkilotlar o'rtasida kundalik axborot almashinuvini to'g'ri yo'lga qo'yish hamda ma'lumotlarni jamlash, o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash yuzasidan muhim fikrlar bayon etildi.

**Abdug'ani XADJAYEV,**  
Namangan viloyati FVB HFXO'M o'qituvchisi.

## MOZIYGA SAYOHAT



Qashqadaryo viloyati FVB shaxsiy tarkib uchun Qarshi shahridagi Odina masjidi va "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyiga sayohat uyushtirildi.

Sayohat davomida shaxsiy tarkib tarixga yuzlanib, yillar davomida o'z vatanining ozodligi va taraqqiyoti uchun jon fido qilgan insonlar hamda ular tomonidan amalga oshirilgan ishlarga oid zarur ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

Qashqadaryo viloyati FVB axborot xizmati.

## KO'NIKMALAR OSHIRILDI

FVV Akademiyasi 5-batalon kursantlari professor-o'qituvchilar boshchiligida, shuningdek, X.Sulaymonova nomidagi sud ekspertiza markazi sud-eksperti A.Pardaboyev ishtirokida Toshkent shahar Uchtepa tumanida tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonasida sodir bo'lgan yong'in yuzasidan yong'in joyini ko'zdan kechirish ishlarida ishtirok etdilar.

Kursantlarga tekstil korxonalarida yong'inlarning kelib chiqishining asosiy sababi elektr uskunalari hisoblanishini, jumladan, bunga qisqa tutashuv, katta tok o'tish qarshiligi va ortiqcha yuklanish sabab bo'lib kelayotganini hamda mazkur belgilarini aniqlash usullari amalda ko'rsatib berildi.

Jarayon yakunida, sud-eksperti A.Pardaboyev kursantlarga ekspertizaga tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan shaxs tomonidan taqdim etiladigan hujjatlarning to'liqligiga va to'g'ri to'ldirilishiga mas'uliyatli bo'lishi zarurligini ta'kidladi.

**A.LITYAGA,**  
FVV Akademiyasi kafedra boshlig'i,  
podpolkovnik.

## BETALOFOT O'TKAZAYLIK

Dehqonobod tumanida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish va uni betalafot o'tkazish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari, ko'rgazmali mashg'ulotlar hamda profilaktik tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda.

Unda fuqarolarga tabiiy gaz, ko'mir, o'tin maxsulotlaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, is gazi va chaqnashlardan ogoh bo'lish, yong'in bilan bog'liq baxtsiz hodisalardan saqlanish zarurligi tushuntirilmogda.

**Bobur SHERALIYEV,**  
Dehqonobod tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i, kapitan.

## BUNYODKORLIK



Bugungi kunda yurtimizda ko'pdan-ko'p yangi baland binolar qad ko'tarmoqda. Xususan Xorazm viloyati Hazorasp tumanida ham bir qator o'zgarishlar ro'y bermoqda. Tumanning "Ziyolilar" mahallasi hududida 50 ta 7 qavatli turar joy binolari, 1 ta umumta'lim maktabi, 1 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti binolari, 1 ta davolanish muassasasi qad ko'tarmoqda.

Qurilish ishlari davomida tuman FV bo'limi tomonidan qurilayotgan binolarda yong'in xavfsizligini taminlash bo'yicha tekshiruvlar va quruvchilar bilan yong'in xavfsizligiga rioya qilish bo'yicha suhbatlar o'tkazilmoqda.

**A.ISMOILOV,**  
Hazorasp tumani FV bo'limi bo'linma katta inspektori, katta leytenant.  
**D.NURMETOV,**  
bo'lim bo'linma boshlig'i, kapitan.

## YOSHLARGA E'TIBOR - KELAJAKKA E'TIBOR



Navoiy viloyati FVBda "Yoshlar kelajagimiz" jamg'armasi viloyat filiali bilan hamkorlikda otaliqqa olingan yoshlar ishtirokida "Rahbar va yoshlar uchrashuvi" tashkil etildi. Tadbirda yoshlarning muammolari tinglanib, ularning mutahassisliklari bo'yicha ish o'rinlari bilan ta'minlash masalasi muhokama etildi.

FVV tizimida faoliyat yuritish istagida bo'lgan bir guruh yoshlarning imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tganligi sababli tizimda ish faoliyatlarini davom ettirishlari uchun hujjatlari rasmiylashtirildi.

Shundan so'ng, yoshlarni tadbirkorlikka qiziqtirish va ularni bo'sh ish o'rinlariga jalb etish maqsadida yoshlar uchun "Biznes sayohat" tashkil etildi. Sayohat Navoiy shahridagi "Navpromlitmas" MChJ filtr ishlab chiqarish korxonasida o'tkazilib, korxonada faoliyati bilan yaqindan tanishtirildi.

**A.TUXTABILOV,**  
Navoiy viloyati FVB boshlig'i o'rinbosari,  
podpolkovnik.  
**M.NAMOZOV,**  
"Navoiyazot" AJ OYoXTTEB PvaYoNB inspektori,  
kapitan.

Samarqand viloyati FVB xodimlari tomonidan Payariq tumanidagi qurilish davom etayotgan "Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi"da profilaktik nazorat tadbiri doimiy ravishda o'tkazib kelinmoqda.

## NAZORAT TADBIRLARI

Ushbu tadbirlarda mutaxassislar tomonidan quruvchi ustalarning hayoti va sog'ligini muhofaza qilish, qurilish obyektlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday favqulodda vaziyatlardan ogoh bo'lish va oldini olish



bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilmoqda hamda xavfsizlik qoidalarini o'zida aks ettirgan eslatma va bukletlar tarqatilmoqda.

Shuningdek, qurilish jarayonlarida yong'in va boshqa ko'ngilsiz holatlarning oldini olish maqsadida viloyat FVB xodimlari tomonidan obyektida navbatchlik xizmati tashkil etilgan.

**Ilhom BOQIYEV,**  
Samarqand viloyati FVB  
axborot xizmati boshlig'i, kapitan.

## "TILSIZ YOV" DAN SAQLANING

Shifoxonalarga tushgan bemorlarning kuyish holatlarini tahlil qiladigan bo'lsak, asosan gaz va elektr isitish asboblardan noto'g'ri foydalanish, yong'in xavfsizligi qoidalarini bilmaslik kabi bir qarashda oddiy narsalar orqali sodir bo'layotganligini ko'ramiz. Kuyish g'oyatda og'ir kechadigan, uzoq vaqt muolajani talab qiladigan kasallikdir. Eng achinarlisi - ayrim bemorlarda uning asoratlari, ya'ni chandiqlar bir umr saqlanib qoladi.

Shunday xolatlarga yo'l qo'ymaslik uchun farzandlaringizga yong'in

xavfsizligi qoidalarini doimiy ravishda o'rgatib boring. Bu ishdan hech qachon erinmang va vaqtingizni qizg'onmang. Ozingina e'tiborsizlik qilib, farzandlarimiz sog'ligiyu chiroyiga zarar yetkazib qo'ygandan ko'ra, bugun shu narsaga qarshi birgalikda kurash olib borганиmiz ma'qul.

**J.ABDUQAIMOV,**  
Qibray tumani OYOXTTEB P va  
NB boshlig'i, podpolkovnik.

## BARHAMIZ MAS'ULMIZ

Navoiy shahar FV bo'limi hamda sohaviy xizmatlar, jamoatchilik vakillari bilan hamkorligida "Yangiariq" mahallasi hududida profilaktik tadbirlar o'tkazildi. 458 ta xonadonlarning yong'inga qarshi holati o'rganib chiqildi.

Bino va inshootlarga o'tkazilgan elektr sim va kablarning holati, gaz ji-hozlarining sozligi, manbaga o'rnatilgan tartibda ulanganligi, isitish pechlari duduronlarining yong'in xavfsizligi talablari darajasida o'rnatilganligiga e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, 22-umumta'lim

maktabi binosining kuz-qish mavsumiga tayyorganlik holatiga ham ahamiyat qaratildi.

**Abdulla AKATOV,**  
Navoiy shahar FV bo'limi katta  
inspektori, kapitan.



## TAJRIBA VA MOHIRLIK

Zarbdor tumani FV bo'limi xodimlari, "Hududgaz Jizzax" gaz ta'minoti filiali "Zarbdortumangaz" ta'minoti bo'limi xodimlari bilan hamkorlikda tumaning "Yangihayot", "Shodlik", "Oybek", "Tinchlik" mahallalari hududida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Ko'p qavatli uylardagi aholi yashash xonadonlari, yakka tartibdagi uylar, tadbirkorlik subyektlarida targ'ibot-tashviqot ishlari o'tkazilib, tejamkor gaz yondirgichlar, geliokollektor uskunalaridan foydal-

anishga erishildi. Tumandagi davlat tasarrufidagi mavjud obyektlarni kuz-qish mavsumiga tayyorganligi va zaxira ko'mirlarining saqlanish holatlari o'rganib chiqilib, ishchi xodimlarga kuz-qish mavsumida yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilishlari bo'yicha qo'shimcha yo'riqnomalar berildi.

**Navro'z MAXSUDOV,**  
Zarbdor tumani FV bo'limi bo'linma  
katta inspektori, kapitan.

## TUNGI O'RGANISHLAR

Qashqadaryo viloyati FVB mas'ullari tomonidan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining talabalar turar joyida



tungi o'rganishlari olib borildi. Jarayonda, talabalarga is gazidan zaharlanish hamda kuz-qish mavsumida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish yuzasidan zarur tavsiyalar berildi.

**Qashqadaryo viloyati FVB**  
axborot xizmati.

## TUSHUNTIRISH ISHLARI

Yong'in xavfsizligi hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha har kuni o'rganishlar o'tkazilmoqda. Mahallalarda o'tkazilayotgan tadbirlarda yong'inlar, havo-gaz aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida mutaxassislar tomonidan aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan mas'ul xodimlarga yozma takliflar taqdim etilib, yuqori turuvchi tashkilotlarga taqdimnoma, axborotnomalar

berilmoqda. Zilzila, yong'in va boshqa favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlash maqsadida davra suhbatlari o'tkazilmoqda hamda faqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda foydalaniladigan maxsus texnikalar va asbob-anjomlar namoyish etilmoqda.

**M.SAYIDIY,**  
Toshkent shahar FVB OYXTTEB  
inspektori, kapitan.

## PROFILAKTIKA

Jizzax viloyati Forish tumani FV bo'limi tomonidan tumandagi 1-umumta'lim maktabi, Madaniyat markazi va tuman Tibbiyot birlashmasida o'tkazilgan o'rganishlar davomida binolarning kuz-qish mavsumiga tayyorganligi, isitish tizimlarining sozligi va birlamchi yong'in o'chirish vositalari bilan ta'minlangaligi alohida e'tibor qaratildi.

Bulardan tashqari, "Oqtepa" mahalla faollari bilan birgalikda uyma-uy yurilib, 234 ta aholi yashash xonadonlarida fuqarolar o'rtasida is gazidan zaharlanish, yong'inlar va boshqa turdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan

tushuntirish ishlari o'tkazildi. 440 nafar fuqaro bilan profilaktik suhbat olib borilib, maxsus eslatmalar tarqatildi.

**Rustam SUYAROV,**  
Forish tumani FV bo'limi boshlig'i  
o'rinbosari, mayor.  
**Sherzod PATTAYEV,**  
bo'lim inspektori, oddiy askar.



Davlatobod tumani FV bo'limi harbiy xizmatchilari tomonidan tumandagi 60 ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari, tarbiyachilari va yordamchi tarbiyachilariga yong'in, zilzila va favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi.

## OGOHLIK

Jumladan: tarbiyachilar boshchiligidagi sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda bolalarni to'g'ri harakatlantirish va xavfsiz evakuatsiyani taminlash bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazilib, mutaxassislar tomonidan bolalarda ko'nikma hosil bo'lishi uchun favqulodda vaziyatlar yuz berganda xavfsiz harakatlanishni ta'minlash bo'yicha qo'shimcha mashg'ulot o'tkazildi.

**Sindorbek USMONOV,**  
Davlatobod tumani FV bo'limi DYON  
inspektori, leytenant.



## ZAHARLANISHDAN SAQLANING

So'nggi kunlarda respublikamiz hududida havo haroratining pasayishi bilan fuqarolar tomonidan turli isitish moslamalaridan foydalanishi ko'payishi tabiiy hol, albatta.

Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in va boshqa ko'ngilsiz hodisalarning ol-

dini olish bo'yicha davlat yong'in xavfsizligi xizmatining yong'in nazorati va profilaktikasi inspektorlari mutasaddi tashkilotlar xodimlari bilan hamkorlikda mahalla, o'quv va davolash muassasalari, litsey, kollej, oliygoh yotoqxonalarida hamda sanoat korxonalarida keng qamrovli targ'ibot-tashviqot ishlarini olib bormoqdalar. Afsuski ushbu olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, ayrim xonadon egalari beparvoligi oqibatida is gazidan zaharlanish, tan jarohati olishlari va halok bo'lish holatlari kuzatilmoqda.

**M.RUSTAMOV,**  
Qibray tumani OYOXTTEB  
inspektori, katta leytenant.



# IJTIMOY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHIDA MA'NAVIYAT VA MA'RIFATNING O'RNI



**Ma'naviyat – inson axloqi va odobi, bilimlari, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlari bir-biri bilan uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizimidir. Insonning jamiyatdagi o'rni uning moddiy boyliklari bilan emas, balki yuksak ma'naviy qiyofasi bilan belgilanadi. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq ma'naviyat, yoshlar tarbiyasi, barkamol avlod, komil insonni shakllantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari qilib belgilandi.**

So'nggi yillarda yurtimizda milliy ma'naviyatni yanada rivojlantirish bo'yicha qator qarorlar qabul qilinib, yangi O'zbekistonning yangi ma'naviy qiyofasini yaratish yo'lida izchil islohotlar olib borilmoqda. Bu o'zgarishlar ma'naviy-ma'rifiy ishlarni davlatimiz siyosatida yanada yuksak o'ringa ko'tardi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi qarorini keltirish mumkin. Qarorda ma'naviyatning barcha sohalarini takomillashtirish ijrosiga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan.

2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 7 ta asosiy yo'nalishning beshinchisi "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" masalasi 8 ta maqsaddan iborat bo'lib, ma'naviy ta'lim-tarbiya masalasi alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi va bu orada mamlakatimizda keng miqyosdagi islohotlar olib borilmoqda.

Kelajakda huquqiy demokratik davlat barpo etish va xalqimiz uchun munosib turmush tarzini yaratish oliy maqsadimizdir. Bu maqsadlarga erishishimiz – xalqimizga, ayniqsa

yoshlarimizga, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga bevosita bog'liq. Jamiyatimizni isloh qilish, milliy qadriyatlarimiz va haqiqiy tariximizni tiklash, milliy g'oyamizga ega bo'lish jarayonida yoshlarni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash dolzarb masalalardan bo'lib, u tarbiyaviy ishlar majmuida asosiy o'rinni egallaydi. So'nggi yillarda yoshlarning ma'naviy-mafkuraviy tafakkurini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, 2018 yilning 14 avgustida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida, yosh avlodning Vatanga sodiqligiga e'tibor berish va g'oyalar ta'siridan himoya qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, diniy bag'rikenglik va totuvlik ruhida tarbiyalashning bugungi kun zaruriyati ekanligi asoslab berilgan.

Tarixga nazar solsak, buyuk Sohibqiron Amir Temur mislsiz yorqin tarixiy shaxs sifatida o'ziga ma'naviy oziq bergan, buyuk ishlarga chorlagan ilmiy-falsafiy ta'limotlarga katta qiziqish bilan qaragan. Ayniqsa, Sharq donishmandlari – Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy singari buyuk mutafakkirlarning tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy ta'limotlaridan to'la xabardor bo'lgan.

Ma'naviyat va ma'rifat, din, odob-axloq haqidagi Amir Temur ta'limotining mohiyatini chuqur va mukammalroq bilib olish uchun uning o'z tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid dasturlar, pand-nasihatlarini hamda boshqa olimlarning u haqida yozgan asarlarini ko'zdan kechirish kifoya. "Temur tuzuklari", "Amir Temur o'g'itlari", "Amir Temur vasiyati", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafamoma", Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi", Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma", B.Ahmedovning "Tarixdan saboqlar" va "Amir Temur",

Evgeniy Berezikovning "Buyuk Temur", Ashraf Ahmedovning sohibqiron tarjimai holiga oid asarlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevori yaratilmoqda. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak. Tarixga nazar solsak, Buyuk Ipak yo'lining chorhasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi. Barchamizga yaxshi ma'lumki, antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash'alasi IX – XII asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy singari buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariy taraqqiyot rivojiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi. "Islom madaniyatining oltin asri" deb e'tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abul Mu'in Nasafiy kabi ulug' ulamolalar butun musulmon olamining faxru iftixori va cheksiz g'ururi hisoblanadi. O'n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat yurtimizda ikkinchi Uyg'onish, ya'ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon

Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Kamoliddin Behzod singari musavvirilar, ko'plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me'morlarning shuhrati dunyoga yoyildi. Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg'or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo'lgani barchamizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Bir o'ylab ko'raylik, ajdodlarimiz bunday yuksak cho'qqilarga qanday erishganlar? Ular, eng avvalo, jaholatga qarshi ma'rifat bayrog'ini baland ko'tarib, o'z aql-zakovati va salohiyatini insoniyat yaratgan ilm-fan yutuqlarini chuqur o'rganish va boyitishga bag'ishlaganlar.

Aslida, barchamizga ma'lumki, "ma'naviyat" so'zi arab tiliga mansub bo'lib, insonning ruhiyati, imon-e'tiqodi, tafakkuri, ongi, aqlu zakovati, ilmu farosati, kiyinish, so'zlashish, muomala madaniyati, milliy hamiyati, milliy qadriyati, tarbiyasi kabi tushunchalarni mujassamlashtirgan yaxlit tushuncha hisoblanadi. Shu jihatdan ma'naviyat har qanday davr va zamonda ham, har qanday jamiyatda ham insoniyatning birlamchi va asosiy ehtiyoji bo'lib keladi, unga hamisha zarurat seziladi. Ma'naviy ehtiyojni qaysi o'ringa qo'yishi va namoyish qilishi bilan shaxsning individual xususiyati ham, e'tiqodiy maqomi ham, ma'rifiy martabasiyu ijtimoiy ong darajasi ham aniq belgilanadi. Ma'naviyat – ochlik, yo'qchilikka go'zal sabrni, jahlu nafsnii tiyish va yengishni, xullas barcha illatlarga qarshi tura olishni ko'rsatadi, o'rgatadi. Uni chin ma'noda, borlig'icha his qila olmaydiganlar, anglab yetmaganlarga inkor etadi, past baho beradi, ahamiyatsiz ko'radi. Mamlakat taraqqiyoti birinchi galdagi yoshlarga bog'liq. Yoshlarni aql-idrokli, bilimli, oriyatli, did-farosatli qilib tarbiyalashimiz shart. Yoshlar tarbiyasida, avvalo, oila mas'ul. Ko'pincha ota-onalar o'z ayblarini maktabga ag'daradi. Holbuki, maktabning birinchi galdagi vazifasi bolaga bilim berishdir. Bolani shaxs sifatida shakllanishi oilaga bog'liq.

Davr oila oldidagi vazifalarni yanada takomillashtirish lozimligini ko'rsatmoqda. Yangi turmush tarzini shakllantirishda ma'naviyatning roli beqiyos. Xalqimiz – qadimdan yuksak ma'naviyatli millat sifatida tanilgan. Butun dunyo xalqlariga o'z bilimi, e'tiqodi, mardligi, vatanparvarligi, oilaparvarligi, tarbiyachiligi bilan o'mak bo'lib kelganligi tarixiy haqiqat. Qadimdan xalqimiz – oilaparvar bo'lgan. Oila – muqaddas. Oila – ma'naviyatlikni shakllantirish vositasidir. Ma'naviyatlikni shakllantirish nafaqat bog'cha, maktab, kollej, lisey, oliy o'quv yurtlari oldidagi vazifalar, ma'naviyatlik balki butun insoniyat oldidagi insoniy mas'uliyatdir.

Ma'naviyatlik insonga xos. Demak, insonlarni, ayniqsa, Yangi O'zbekistonni yangi yoshlari yuksak ma'naviyatli, yuksak bilimli, yuksak didli, yuksak farosatli, yuksak aqli, bilimli, yetuk mutaxassis bo'lishi zarur.

Anvar QOBILOV tayyorlardi.

**Bugungi kungacha fransiyalik mashhur okeanograf Jak Iv Kustoning Amerika razvedkasiga ishlagani to'g'risidagi ma'lumot ko'pchilikni qiziqtirib keladi.**

## JAK IV KUSTO

Yugoslaviya Respublikasi ham bu jumboqni topishga ancha uringan. Yugoslaviyalik sobiq aksilrazvedkachi Dragomir Iovanovich o'z memuarida bu haqda yozgan. 1974 yilda "Kalipso - 1" tadqiqot kemasi Andriatika dengizi sohiliga yaqinlashadi. Tegishli ruxsat olmasdan akvalangchilar dengiz ostida ish boshlab yuboradilar. Manzilga yetib kelgan sohil qo'riqchi kateri va chegarachilar noqonuniy ishni darhol to'xtatish buyrug'ini berishadi. Kusto ulardan norozi bo'lib, orqaga qaytishga majbur bo'ladi.

Bir muddat o'tib, u Yugoslaviya hokimiyatiga rasmiy murojaat bilan chiqadi hamda Vis, Mlet va Lastovo orollari atrofida tadqiqot ishlari olib borishga izn so'raydi. Aynan o'sha vaqtda va o'sha joyda YUFSRning Harbiy-dengiz floti kemalari joylashib olib, "faoliyat" yuritayotgandi.

Kustoning mahalliy hokimiyatdan yana bir talabi hammasidan o'tib tushadi. U "Kalipso" to'xtagan 30

kilometrlik radiusda harakatlanayotgan barcha dengiz transporti vositalari to'g'risida ma'lumot so'raydi. Aksilterrorchilar fransuz okeanografining g'aroyib qiziqishlaridan hayratlanib, davlat rahbariyatiga bu haqda xabar berishga majbur bo'ladilar. Shundan keyin Kusto Yugoslaviya suvlari yaqiniga yo'lamaslik talabi bilan hududdan badarg'a qilinadi.

Harbiy dengiz maktabi bitiruvchisining suvostini o'rganishga qiziqishi 1930-yillarda boshlangan. Ikkinchi jahon urushi davrida suvosti qo'poruvchilari otryadiga rahbarlik qilgan. U shaxsan Italiyaning Palermo portida amalga oshirilgan terror amaliyotiga bosh-qosh bo'lgan.

Urushdan keyin ham Kustoning tadqiqotlar o'tkazishga qiziqishi so'nmaydi, ammo bu ishlarni amalga oshirish uchun yetarli mablag'i yo'q edi. Unga AQSH Harbiy dengiz flotidagi



tanish razvedkachilar yordamga kelishadi. Ko'p o'tmay zamonasining oldi bo'lgan maxsus "Kalipso-1" kemasi yaratiladi. Shuning barobarida Kustoning Shveysariyadagi bank hisob raqamiga avvaliga 100, keyin esa 50 million dollar tushirib beriladi.

Okeanografning AQSH yoki NATOning boshqa mamlakati razvedkasiga ishlagani to'g'risidagi ma'lumot hamon sir bo'lib qolmoqda. Biroq guvohlarning tasdiqlashicha, Kustoning kemasida doim nihoyatda ko'plab turli-tuman murakkab uskunalari joylashgan, bundan faqatgina tor doira odamlarining xabari bo'lgan.

Kustoning bunday hamkorlikka borgani taxmin qilinsa, u yon-atrofidagi suvosti kemalarining harakatlanishi, texnik xususiyatlaridan xabardor bo'lganini anglash mumkin. Bundan tashqari, dengiz chuqurligida yadro chiqindilari ko'milgan joylar hamda yerosti boyliklari qidruvi bilan ham shug'ullanganini faraz qilish mumkin.

Darvoqe, Kusto Bering bo'g'ozini AQSH manfaatlariga xizmat qildirishga ko'mak beradi. 1986 yil kuzida "Kalipso - 2" kemasi bu makonga yaqinlashib, ekipaj suv ostida tadqiqot ishlarini boshlab yuboradi. Bo'g'ozning mana shu tor yo'lavidan AQSHning suvosti atom kemalari erkin harakatlanishi Moskvaning g'ashiga tegayotgan edi.

Davlat xavfsizlik xizmati zudlik bilan bo'g'ozni yopish rejasini ishlab chiqadi.

Mazkur voqeadan biroz o'tib, matbuotda fransuz geologlarining strategik tabiiy xomashyo kashf qilgani haqida xabar tarqaladi. Amerikaliklar Kusto topgan bu boylik xaritasi evaziga bo'g'ozni yopmaslikni so'raydilar. Ushbu murojaatga kechiktirmasdan ijobiy javob olinadi.

Fidel Kastroni o'ldirish rejasiga ko'ra, suv ostidan uning sohil bo'yidagi villasiga yetib borish mo'ljallanadi va bu masalada Kustoga murojaat qilinadi. Ammo Kusto uzoq o'ylab o'tirmay, bu topshiriqni bajarishdan bosh tortadi. Vaqt o'tib, Kustoning o'g'li Filipp vertolyotning favqulodda halokatga uchrashi tufayli vafot etadi.

## TIRBANDLIK HAR JOYDA BOR

**Bugun yirik shaharlarning ko'pchiligini avtomashinalar tirbandligi qiynaydi. Ammo qator davlatlar bu muammoga o'ziga xos yechim topib, vaziyatni barqarorlashtirishga erishgan. Masalan, Germaniyada jamoat transporti shu qadar aniq va yaxshi ishlaydiki, yo'lovchi belgilangan manzilga yetib kelish vaqtini bir daqiqagacha biladi. Nemislar yo'llarda harakatlanish jarayonini optimallashtirish uchun barcha svetoforlarning ishlashini sinxronlashtirganlar.**



Daniya aholisining 20 foizi shahar bo'ylab velosipedda harakatlanadi. Angliya poytaxtida tarixiy shahar markaziga taxminan 5 funt pullik kirish to'lovi joriy qilingan bo'lib, maxsus jihozlar uchun istisno mavjud. Parijda shaxsiy transport vositalarining haydovchilari iqtisodiy jihatdan shahar markazidan va umuman yo'llardan siqib chiqariladi. Asosiy magistrallar asosan jamoat transporti uchun mo'ljallangan bo'lib, avtobuslar orasidagi oraliq vaqt juda qisqa. Oqibatda shaxsiy avtomashinalar haydovchilari tirbandlikda turishga majbur bo'lisha-

di, chunki jamoat transporti uchun bo'lak oddiy yo'l hisobidan qilingan. Natijada yo'lda mashinalar kamaygan, odamlar avtobuslarga o'tgan.

Finlyandiya maxsus moslamalar vositasida yo'lining har bir qismidagi mobil telefonlar sonini hisoblash orqali, tirbandlik nazorat qilinadi. Agar ularning soni sezilarli darajada oshgan bo'lsa, bu joylarda tirbandlik yuzaga keladi, deb qaraladi va oldini olish choralarini ko'riladi.

AQSHda muntazam yangi barpo etilgan aholi yashash hududlari yoki yo'llarda yangi chorrahalar quriladi, o'z vaqtida yo'llar kengaytiriladi. Sun'iy yo'ldoshlar orqali tirbandliklar kuzatib turiladi. Yakka tartibdagi haydovchilarga yuqori tezlikda harakatlanuvchi qatorlarga chiqish taqiqlanadi va buning uchun jarima solinadi.

Pekinda yangi mashinani ro'yxatdan o'tkazish oson emas. Bu imtiyoz fuqaroga vafot etgan qarindoshlaridan meros bo'lib qoladi. Rasmiy ro'yxatdan o'tmagan fuqarolar faqat mahalliy hokimiyatning maxsus ruxsati bilangina Pekinga kirishi mumkin. Tig'iz paytda Xitoy poytaxtiga hatto mehmonlar ham kiritilmaydi. Masalan, dushanba kuni 1 va 5 raqamlari bo'lgan avtomobillar yo'llarda harakatlanishi mumkin, seshanba kuni - 2 va 6 raqamlari bilan va hokazo. Dam olish kunlarida barchaga yo'llardan foydalanishga ruxsat beriladi. Yengil va yuk mashinalari uchun yer osti tunnelli tizimi joriy etilgan.

Singapurda 90 yillardan keyin tirbandlik ko'lami oshib ketgandi. Shu munosabat bilan ular sotiladigan avtomobillar sonini cheklab, taksilar narxini pasaytirdilar. Singapurda sotib olingan mashinani ro'yxatdan o'tkazish uning narxidan 1,4 barobar qimmatroq. Ular, shuningdek, import qilingan avtomobillar uchun juda yuqori. Davlat raqamlariga ega bo'lganlarni maxsus kim oshdi savdolarida katta pulga sotib olishadi. Avtomashina haydash uchun o'n yillik lisenziya 10 dan 20 ming dollargacha turadi. U yerda qoidabuzarlarga qarshi kurash onlayn tarzda olib boriladi.

Sahifani Anvar QOBILOV tayyorladi



## Vaziyat

gazetasi

**Muassis:**  
O'zbekiston  
Respublikasi  
Favqulodda  
vaziyatlar  
vazirligi

*Bosh muharrir*  
**Azamat SUYUNOV**

*Gazeta tahririyat*  
*kompyuterxonasida*  
*sahifalandi.*

Gazeta har haftaning  
payshanba kuni chiqadi.  
Topshirish vaqti - 15.00  
Topshirildi - 15.00

*Navbatchi:*  
**A.QOBILOV**

Tahririyatga yuborilgan  
materiallar qaytarilmaydi  
va izoh berilmaydi.  
Mualliflar fikri  
tahririyat nuqtai nazaridan  
farqlanishi mumkin.

Gazetadan olingan materiallar  
manbasi ko'rsatilishi shart.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va  
axborot agentligida 2007 yil  
3 yanvarda 0096-son raqam  
bilan ro'yxatga olingan  
**ISSN 2091-5292**

**Tahririyat manzili:**  
100084, Toshkent shahri,  
Yunusobod tumani,  
Sh.Rashidov ko'chasi, 17-A-uy.  
**Tel.:** (71) 212-69-56  
**Telegram:** (90) 016-87-67

**Indeks:**  
*yakka obunachilar va*  
*tashkilotlar uchun - 382*

Gazeta "Sharq NMAK"  
bosmaxonasida bosildi.  
Manzil: Toshkent shahri,  
Mirobod tumani  
Buyuk Turon ko'chasi 41-uy  
Buyurtma № G-1052  
Bichimi: A3, hajmi: 2,0 b.t.  
Adadi - 10000 nusxa